

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ANTONOMAZIYALI EPITETLAR

Mardonova R.O.
katta o‘qituvchi
Termiz davlat universiteti
Termiz, Uzbekistan
Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida antonomaziya va epitetning uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladigan antonomaziyali epitetlarning semantik xususiyatlari, uslubiy funksiyalari va badiiy adabiyotdagi o‘rni tahlil qilinadi. Antonomaziya atamasining kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi hamda ingliz va o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqotlari haqida ma’lumot beriladi. Misollar va ilmiy mulohazalar asosida bu uslub vositasining milliy va madaniy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: antonomaziya, epitet, stilistika, semantika, ingliz adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, badiiy nutq.

ANTONOMASTIC EPITHETS IN ENGLISH AND UZBEK

R.O. Mardonova
Senior Lecturer
Termez state university
Termez, Uzbekistan

Abstract:

This article analyzes the semantic features, stylistic functions, and the role in literary discourse of antonomastic epithets that emerge from the interaction of antonomasia and epithet in English and Uzbek. It provides an overview of the origin, historical development, and scholarly investigations of the term *antonomasia* in English and Uzbek linguistics. Drawing on illustrative examples and academic discussion, the study elucidates the national and cultural significance of this stylistic device.

Keywords: antonomasia, epithet, stylistics, semantics, English literature, Uzbek literature, literary discourse.

Dunyo va milliy tilshunoslikda alohida e’tiborga molik masalalardan biri antonomaziya hodisasidir. Ushbu stilistik vosita, asosan, keng jamoatchilikka

ma'lum bo'lgan badiiy qahramonlar, tarixiy voqealar yoki afsonaviy shaxslar orqali namoyon bo'ladi. Antonomaziyaning adabiyotga ta'sirini aniqlash, uning asosiy xususiyatlari, shakllanish va rivojlanish yo'llari hamda qonuniyatlarini o'rganish, mavjud nazariy qarashlarni qayta ko'rib chiqish, shuningdek, leksik-semantik va lingvopoetik jihatdan tahlil qilish, uning mantiqiy, psixologik, lisoniy va poetik xususiyatlarini bir butun sifatida o'rganish bugungi ilmiy tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Antonomaziya nomning boshqa ob'ektga o'tkazilishiga asoslangan bo'lib, ya'ni bir ob'ektning ma'lum xususiyat yoki harakatlari boshqa ob'ektda aks etishining maxsus hodisasini ifodalaydi. Ilk davrlarda antonomaziya ko'pincha faqat stilistik vosita sifatida qaralgan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotlarda uning mohiyati va funksiyalari bo'yicha turlicha yondashuvlar mavjud. Ushbu qarashlar antonomaziyaning noto'g'ri talqin qilishni anglatmaydi, aksincha, uning stilistik hodisadan kengroq, lingvistik va mantiqiy-psixologik vosita ekanligini ko'rsatadi.

Antonomaziya til nominatsiyasining vositasi sifatida yangi semantik guruhlar, ularning tarkibiy, semantik va pragmatik xususiyatlarini shakllantiradi. U og'zaki nutq va badiiy matnda qo'llanadi, ammo badiiy matnda nisbatan kengroq ishlatiladi. Adabiy matnda antonomaziya ijodkorning sub'ektiv qarashini ifodalash, matnni shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi, ko'pincha metaforik ma'noda ishlatiladi va badiiy san'at hamda uslubiy figuralar yaratishga zamin yaratadi.

Antonomaziyada ishora qilinayotgan tarixiy yoki badiiy faktning keng jamoatchilikka tanishligi muhim ahamiyatga ega. Faktning mashhurligi qanchalik yuqori bo'lsa, uning ko'chma ma'nosi va mohiyatini tushunuvchilar doirasi shuncha keng bo'ladi. Badiiy matnda antonomaziyalar ijodkor fikrini aniq, ixcham va ta'sirchan ifodalash va badiiy san'atni jonlantirish maqsadlarida ishlatiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, ifoda vositalari o'z-o'zidan badiylik kasb etmaydi va matnni tashkil qilmaydi. Ular faqat badiiy matn

kontekstida, boshqa tasvir vositalari bilan birga ishlaganda ma'no kasb etadi va tasvirlanayotgan voqea-xodisalarni yanada bo'rttirib, umumlashtirib ko'rsatishda muhim vosita bo'ladi. Antonomaziyalar, shuningdek, metaforik va ko'chma ma'noga ega bo'lib, matnning ta'sirchanligi va emotsionalligini oshiradi, tarbiyaviy-estetik vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ingliz tilshunosligida antonomaziya atamasi 16-asr oxiri — 17-asr boshlarida joriy etilgan bo'lib, ilmiy jihatidan G. Leech va R. Fowler kabi stilistika soha vakillari tomonidan tahlil qilingan. O'zbek tilshunosligida antonomaziya masalalari U. Umaraliyev, O. Jo'rayev va I. Haqqul kabi tilshunos va adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilgan. N. Vasilyevaning ta'kidlashicha: "Antonomaziya shaxsning o'ziga emas, balki unga xos bo'lgan belgiga urg'u beradi. Epitet esa ushbu belgining ifodaviy kuchini oshiradi"[1]. Bu fikr shuni anglatadiki, epitet va antonomaziya uyg'unlashgan holda ishlatilganda, nafaqat shaxsga oid xususiyatni ta'kidlaydi, balki uni obrazli va esda qolarli qiladi. Bizningcha, epitet va antonomaziyani butunlay alohida stilistik vositalar sifatida qarash to'g'ri emas, aksincha, ularning birikmasi sifatida "antonomaziyali epitet" tushunchasini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi, vaholanki, bu birikma shaxs yoki predmetning asosiy semantik belgisi bilan birga, uning konnotativ (ya'ni emotsional, baholovchi) ma'nosini ham kuchaytirib ifodalaydi. G. Leech esa bu haqda shunday deydi: "Antonomasia is a poetic strategy to infuse evaluation into mere naming"[2]. (Antonomaziya — oddiy ism qo'llash orqali unga baholovchi ma'no singdirishga xizmat qiluvchi poetik usuldir.). Ba'diiy til uslublari bo'yicha ish olib brogan O. Jo'rayevning ta'rificha: "Antonomaziyali epitetlar she'riy matnni estetik jihatdan boyitadi, ayniqsa milliy obrazlar orqali umumlashma mazmun beradi"[3]. R. Fowler o'zining "Linguistic Criticism" asarida: "Epithets that rely on antonomasia become semiotic devices—they signal collective memory or cultural archetypes", ya'ni "Antonomaziya asosidagi epitetlar semiotik vositalarga aylanadi — ular jamoaviy xotira yoki madaniy arxetiplarni ifodalaydi"— deya ta'kidlaydi. [4]

Aytish lozimki, epitetlar tasnifida mavjud ayrim epitetlar turi o‘zbek tilida deyarli kuzatilmaydi. Masalan, I.R.Galperin talqini bo‘yicha ingliz tilida obraz hosil qilmaydigan epitetlar 4 ta asosiy guruhga bo‘linadi: 1) ko‘chirilgan epitetlar,

2) oksyumoronli epitetlar, 3) giperbolik epitetlar va 4) antonomaziyali epitetlar.

Ingliz adabiyotida antonomaziyali epitetlar ko‘pincha tarixiy yoki diniy shaxslar bilan bog‘lanadi, masalan, "The Bard of Avon" — Uilyam Shekspirga tegishli, "Iron Lady" — Margaret Tetcherga va "Father of the Nation" — George Washingtonga nisbatan ishlatiladi. *The Norton Anthology of English Literature* (9th ed., Vol. 1, p. 884)da: "...the Bard of Avon’s timeless verses still echo in our souls", yani, "Avon shoiri"ning abadiy she'rlari hanuz yuraklarimizda aks-sado beradi (Shekspirni "bard"-ya’ni shoir, buyuk shoir, deb atashgan). [5].

Xuddi shuningdek, o‘zbek adabiyotida ham ular ko‘pincha tarixiy va milliy obrazlar bilan bog‘liq, masalan, "Buyuk Sohibqiron" — Amir Temur, "Navolar sultoni" — Alisher Navoiy, "El-yurt posboni" — Vatan himoyachilari, va h.k. "Buyuk Sohibqiron yurishlarida saboq bor..."(I. Haqqul), Navolar sultoni qalbinga nur sochdi" (M. Yusuf).

Antonomaziyali epitetlar nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki madaniy va tarixiy xotirani aks ettiruvchi semantik birliklardir. Ular tilning estetik va ideologik kuchini oshirib, xalq xotirasida o‘chmas obrazlar yaratadi. Bugungi kundalik hayotimizda ham antonomaziyali epitetlardan fikrlarni go‘zal va ta’sirchan qilish uchun keng va samarali foydalaniladi, masalan: "xalqning yo‘lboshchisi" (davlat rahbariga nisbatan), "millat ko‘zgulari" (xalqning nomini dunyoga taratayotganlar) kabi.

Ingliz va o‘zbek tillarida uchraydigan antonomaziyaga asoslangan epitetlar tilning badiiy-estetik, madaniy-ma’naviy va semantik-ekspressiv imkoniyatlarini yuqori darajada namoyon etadi. Bunday epitetlar milliy

madaniyat, tarixiy xotira va kollektiv ong mahsuli bo‘lib, matnning emotsional ta’sirchanligini oshiradi, obrazlarning chuqur va ko‘p qirraliligini ta’minlaydi. Ularning lingvistik va madaniy funksiyalarini o‘rganish stilistika, tarjima nazariyasi va amaliyoti, shuningdek, madaniyatshunoslik va intertekstual tadqiqotlar uchun alohida nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vasilyeva A. N. Prakticheskaya stilistika russkogo yazyka dlya inostrannykh studentov-filologov starshikh kursov: Uchebnoe posobie dlya studentov-inostrantsev. — Moskva: Russkiy yazyk, 1981 (1-chi izd.); 2-e izd. — Moskva: Russkiy yazyk, 1989.
2. Leech G. Language and Literature. — London: Longman, 1981.
3. Jo‘rayev O. Badiiy til uslublari. — Samarqand: Samarqand Universiteti, 2020.
4. Fowler R. Linguistic Criticism. — Oxford: Oxford University Press, 1986.
5. Greenblatt S. (ed.). The Norton Anthology of English Literature. 9th ed., Vol. 1. — New York: W. W. Norton & Company, 2012.